



O'zbekiston Milliy axborot agentligi
O'zA Ilm-fan bo'limi

Elektron jurnal
2023-yil oktyabr soni №10 (48)

Toshkent-2023

O‘ZBEKISTON MILLIY AXBOROT AGENTLIGI – O‘ZA ILM-FAN BO‘LIMI (ELEKTRON JURNAL)

**Ilmiy nashr
2023-yil oktyabr oyi soni №10 (48)**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2019-yil 28-martdagi 263/7.1 va 263/7.4-son qaroriga binoan tashkil etilgan.

Elektron jurnalga kelgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e‘lon qilingan maqolalardan olingan parchalar O‘ZA Ilm-fan bo‘limi (elektron jurnal)dan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Elektron jurnalga bir yarim oraliqdagi materiallar “Microcoft Word” redaktori, “Times New Roman” shriftida elektron versiya shaklida qabul qilinadi.

Tahrir kengashi

A.Ko‘chimov
A.Asqarov
D.Yu.Yusupova
A.X.Saidov
T.O‘.Aripova
Q.R.Allaev
S.M.Turobjonov
Sh.T.Qudratxo‘ja
N.A.Husanov
N.K.Achilov

Q.Sh.Omonov
A.S.Sagdullaev
S.S.G‘ulomov
F.G.Nazirov
R.D.Kurbanov
M.H.Rustamboev
N.M.Mahmudov
I.S.Saifnazarov
N.X.Oblomurodov
G.A.Mardonova

ZAMONAVIY JAMIYAT TENDENSIYALARINING MA'NAVIY EHTIYOJLAR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Jamshid Azimovich JABBOROV

Falsafa fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Xalqaro innovatsion universitet

Qarshi, O'zbekiston

jamshidshoh@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy jamiyat tendensiyalari, ularning ma'naviy ehtiyojlar rivojlanishiga ta'siri (inson ehtiyojlari yuksalishiga, ayniqsa, yosh avlodda ehtiyojlar shakllanishiga ham ancha ziddiyatli ta'siri) izchil ilmiy tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: postmodern, tendensiya, inson, ma'naviy ehtiyoj, internet, globallasuv, texnologiyalar rivoji, IT texnologiyalar, sun'iy intellekt.

ВЛИЯНИЕ ТЕНДЕНЦИЙ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА НА РАЗВИТИЕ ДУХОВНЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ

Жамшид Азимович ЖАББОРОВ

Доктор философии по философским (PhD) наукам

Международный инновационный университет

Карши, Узбекистан

jamshidshoh@gmail.com

Аннотация

В данной статье последовательно научно анализируются тенденции современного общества, их влияние на развитие духовных потребностей (достаточно противоречивое влияние на подъем потребностей человека, особенно на формирование потребностей подрастающего поколения).

Ключевые слова: постмодерн, тренд, человек, духовные потребности, Интернет, глобализация, развитие технологий, IT-технологии, искусственный интеллект.

Insoniyat taraqqiyotidagi zamonaviy jamiyatni ifodalash uchun qo'llaniladigan postmodern (lotincha, post – keyin, moderne – yangi, zamonaviy) hodisasi bugungi kun umumjahon ilm-fanida, san'at va madaniyat sohalarida bir qator ilmiy-nazariy munozaralarni keltirib chiqarmoqda. So'zma-so'z tarjimasida "zamonaviydan keyin" degan ma'noni bildiradi. Ilmiy manbalarni tahlil qilganimizda, "postmodern" tushunchasi ilk bor XX asr boshlarida ilmiy izlanishlar olib borgan nemis faylasufi R.Panvitsning "Yevropa madaniyati tanazzuli" [4] kitobida "yangi" dan keyingi paydo bo'ladigan yangiliklarni anglatuvchi tushuncha sifatida ta'riflanib, falsafa va san'atda modernizmdan keyin yuzaga kelgan o'zgarish va yangiliklarni ifodalash uchun ishlatilgan. XX asrning 30-yillarida adabiyotshunos olim F.de Onis tomonidan

yaratilgan “Ispan va Lotin Amerikasi poeziyasi antologiyasi” asarida bu atama modernizmga zid, qarama-qarshi tushuncha tarzida yoritiladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin yaratilgan (1947-yilda) “Tarixni o‘rganish” [6] asari orqali mashhur sotsiolog A. Toynbi postmodernizm atamasi zamonaviy davrni (1-jahon urushi davridan boshlab) belgilash uchun qo‘llanilgan. XX asrning 70-yillarida Lotin Amerikasida din muammolariga bag‘ishlangan ilmiy nazariyalar yaratgan amerikalik olim X.Koks tomonidan “postmodern teologiyasi” atamasi dimiy ma’noda qo‘llanila boshlandi.

Falsafiy va san’atshunoslik fanlar tizimida “Postmodern” tushunchasi Ch.Jenksning “Postmodern me’morchilik tili” [5] kitobi chop etilgandan so‘ng juda keng yoyildi. Ushbu asarda anchadan buyon turli ma’nalarda qo‘llanib kelinayotgan postmodern atamasi o‘zgacha ma’noda ta’riflanadi. Ch.Jenks [1] postmodernizm me’morchilik san’atida yangi davr boshlaganligini, ushbu sohada tarixiy usul va vositalardan foydalanish mumkinligi, nusxa olish, avvalgi binolarga zamonaviy o‘zgarishlar kiritib, yangicha ko‘rinish yaratish ijodkorlik tarzida qabul qillnaverishini qayd etadi. Olimning “Postmodern me’morchilik tili” kitobi tahlil qilinganda postmodern atamasi faqatgina me’morchilikka emas, balki zamonaviy san’atning barcha turlariga ham taalluqli ekamim ta’kidlaydi. XX asrning yetmishinchi yillarida ushbu atama me’morchilik, san’at va adabiyotdagi yangi uslublarni anglatgan bo‘lsa, XX asrning saksominchi yillaridan boshlab bu atama falsafiy ma’noda ham ishlatila boshlandi. Bugungi kunda falsafiy, ilmiy-nazariy manbalarda “postmodern” atamasi – zamonaviy jamiyat degan keng ko‘lamli ma’noda qo‘llanilmoqda.

A.Erkayev tomonidan yozilgan “Tafakkur erkinligi” [2] kitobida postmodern jamiyatning bir qator belgilari keltirib o‘tiladi:

ishlab chiqarishda yuksak texnologiyalarning qo‘llanilishi;

axborot texnologiyalarini ommaviy kommunikatsiya sohasiga, shuningdek, jamiyat hayotining barcha sohalariga, hatto ishlab chiqarishga ham kirib kelishi;

softver (elektron aloqa xizmatlari) sohasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning uzviy tarmog‘iga aylanishi;

jahon taraqqiyotida globallashuv tendensiyasining vujudga kelishi;

ommaviy madaniyat keng tarqalgan ijtimoiy hodisaga aylanishi;

inson ongi, tafakkuri va xulq-atvori, jamiyat mentalitetining ancha o‘zgarishi.

Olimning fikricha ba’zi hollarda “postmodern jamiyatda ko‘plab mumtoz qadriyatlarining deformatsiyaga uchrashi tufayli ular o‘rnini soxta qadriyatlar egallamoqda”. Bu ehtiyojlar rivojlanishiga, ayniqsa, yosh avlodda ehtiyojlar shakllanishiga ham ancha ziddiyatli ta’sir ko‘rsatmoqda. Iste’molchilik psixologiyasi, yoshiarning submadaniyati, ayrim qatlamlarda marginal qarashlar kuchaymoqda, mumtoz qadriyatlar tizimiga munosabat o‘zgarimoqda. Ayrim yoshiarda milliy nigilizmga, kosmopolitizmga moyillik ko‘zga tashlanmoqda.

Mamlakatimiz jahon hamjamiyati orasida ma’naviyatga, ilm-fan sohasiga katta e’tibor qaratayotgan davlat sifatida tanilmoqda. Barqaror rivojlanishi uchun eng so‘ngi ilm-fan va texnologiyalarni egallash, mustaqil dunyoqarashga ega bo‘lgan, milliy iftixor tuyg‘usi jo‘shurgan, miliatchilik, irqchilik va milliy maddohilikdan holi, hur va erkin, ayni vaqtda fuqarolik mas’uliyatlarini o‘z kasb-kori, ijtimoiy muhiti talab qiladigan darajada o‘zlashtirgan shaxsni tarbiyalash lozim. Insonning sog‘lom ma’naviy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va yuksaltirish imkoniyatlari jamiyatda yuzaga keluvchi ko‘plab muammolar ta’sirida cheklanmoqda yoki inkor etilmoqda. Biroq postmodern jamiyatda iste’molchilik psixologiyasidagi o‘zgarishlar, mazmunan sayoz bo‘lgan ommaviy madaniyat unsurlari ta’sirining kuchayib borishi ma’naviy ehtiyojlarga yuzaki, ayrim hollarda nosog‘lom tus berilishiga olib

kelmoqda.

Postmodern jamiyat ziddiyatlarining ehtiyojlar rivojiga ta'sirini quyidagi tahlillar yordamida ko'rib chiqamiz:

Globallashuv. Globallashuv zamonaviy taraqqiyot tendensiyasi bo'lib, u jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi. Butun insoniyat, xalqlar hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi umumiy omillar, yo'nalishlar, qonuniyatlarni anglatadi. Globallashuv hayot sur'atlarining milliy manfaatlariga bo'ysunmasidan jadallik bilan rivojlanishidir.

Globallashuv jarayoni tufayli yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi: axborot, ishlab chiqarish texnologiyalari, turli sohalarda xizmat ko'rsatish va hokozalar tubdan rivojlandi. Natijada turli hududlarda yashayotgan insonlar o'rtasidagi axborot bilan ta'minlanish borasidagi keskin farqni sezilarli kamaytirish imkoni vujudga keldi. Bu jarayon ta'siri madaniy mahsulotlar iste'molida ham namoyon bo'lib, insonlarning televideniye, radio, video va audio mahsulotlari, internet orqali adabiyot va san'at asarlari, muzeylardagi qadimiy eksponatlar bilan virtual tanishish va tomosha qilish, kutubxonalardagi badiiy-ommabop va ilmiy asarlarni o'qish, masofadan turib bilim olish imkoni vujudga kelishiga xizmat qildi.

Bu jarayon ta'sirida insonlarning ma'naviy iste'moliga salbiy ta'sir etuvchi, nosog'lom ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan turli zamonaviy shou-tomoshalar (ayniqsa, ma'lum bir guruhni yoki shaxsni PR qilishi uchun), ijtimoiy tarmoqlar orqali virtual muloqotlar (Facebook, Telegram, Tik-tok, Twitter, Wechat, Instagram, Whatsapp va boshqalar), har xil onlayn elektron o'yinlar (PUBG, Clash of clans, DOTA, PES, Zombe va h.k.) va ommaviy madaniyatning boshqa standartlashgan, mazmunan sayoz, ba'zan odamlarni chalg'ituvchi mahsulotlar bugungi kun axborot maydonining katta qismini egallagan. Axborot texnologiyalarining shiddatli yangilanishi globallashuvni nihoyatda tezlashtirib yubordi.

Yer yuzidagi barcha insonlar tomonidan iste'mol qilishga mo'ljallangan omma mahsulotlari (moddiy va ma'naviy) ularning ongini, psixologiyasini, turmush tarzini, qadriyatlar tizimini bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Lekin g'arbning kosmopolitik tushadagi madaniyati, urf-odati, turmush tarzi, standartlashgan, mazmunan sayoz, ba'zan odamlarni chalg'ituvchi mahsulotlari milliy qadriyatlar tizimining qashshoqlashishiga olib kelmoqda. Hatto boy madaniy an'ana va qadriyatlarga, ulkan yutuqlar va intellektual salohiyatga ega xalqimiz yoshiari orasidan ko'pchiligining kosmopolitik ommaviy madaniyat, ba'zilarining kitch madaniyat unsurlari ta'siriga tushib qolishi postmodern jamiyatining ma'naviy ehtiyojlarga salbiy ta'sir ko'rsatishidan (ijobiy ta'sir qatorida) dalolatdir.

Rivojlanayotgan mamlakatlar raqamli telekanallari, boshqa OAV orqali tarqalayotgan mahsulotlar, savdo tarmoqlarida sotilayotgan disklar, har xil elektron o'yinlarning hajmi shiddat bilan ko'payib borishi iste'mol ehtiyojlarining muttasil o'sib borayotganini ko'rsatadi. Biroq yaratilayotgan madaniy mahsulotlarning salmoqli qismini zo'ravonlik, fahsh, pornografiya, buzg'unchilik, radikalizm, shovinistik ruhdagi, LGBT ni targ'ib qiluvchi g'oyalar tashkil etadi. Bu insonlarning, ayniqsa yoshiarning ongiga, hayotga munosabatiga, didiga va baholashlariga, milliy madaniyatlarga o'ta ziddiyatli ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat ma'naviy hayotida ba'zi bir buzg'unchi g'oyalar, axloqiy, estetik va boshqa soxta qadriyatlarining tarqalishiga, milliy madaniyatlarining o'ziga xos zaiflashuviga sabab bo'ladi.

Texnologiyalar rivojlanishi. So'ngi yillarda IT-sohasidagi yangiliklardan xabarsiz qolishi, ilm-fan yutuqlari va kashfiyotlardan foydalanmaslik insonni, muayyan jamiyat, hattoki, tabiiy resurslarga boy davlatlarni ham taraqqiyotdan orqada qolib ketishiga sabab bo'lmoqda. Texnologiyalar tizimida IT-sohasi yetakchilik qilmoqda: davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ishlab chiqarish (zavod va fabrikalar), ijtimoiy institutlar faoliyati, ta'lim tizimi, madaniyat,

sogʻliqni saqlash, sport va hokazolarni IT-texnologiyalarsiz tasavvur qilish mushkul. Zamonaviy jamiyatda ishiab chiqarish, qurilish, transport, aloqa tizimida har bir sohaming oʻz texnologiyalari hamda nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar, muqobil energiya turlaridan foydalanish texnologiyalari va axborot texnologiyalari bilan omixtalamb, yangicha mazmun va shakl kasb etmoqda. Ular orasida sohalarning oʻz ixtisoslashgan texnologiyalari bilan birlashib, mushtaraklashish boʻyicha IT-axborot texnologiyalari yetakchidir. Masalan, meditsina va qishioq xoʻjaligida anʻanaviy usullar qatorida genetika yutuqlari, genlar injeneriyasi, tibbiyotda gʻarovli xujayralar yordamida inson aʼzolarini yaratish, qishioq xoʻjaligida genetik modiflkatsiyalashgan serhosil navlarini yaratish, yoki nanotexnologiyalar va materiallarning atom strukturasi taʼsir koʻrsatish orqali belgilangan xossaga ega qilish, kompozit materiallardan foydalanish – bular hammasi postmodern jamiyatning yangi texnologiyalaridir. Ammo bu jarayonlarni anʻanaviy usullarda hisoblab ham, kuzatib, boshqarib boʻlmaydi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun superkompyuterlar va eng samarali IT dasturlar kerak.

Zamonaviy texnologiyalar taraqqiy etishini istagan har bir xalqdan ularni oʻzlashtirishni, yaʼni zamonaviy ilm-fanni, texnologiyalarni oʻrganishini, amalda qoʻllash koʻmkmalariga ega boʻlishini talab qiladi.

Har bir sohadagi yangiliklar, ixtirolar, yutuqlar butun insomiyatning mulkiga aylanmoqda. Bugungi kunda har qanday ahamiyatli, qiziq gʻoyalarning, foydali va foydasiz axborotning, texnologiyalarning, mahsulotlarning dunyo boʻylab tez tarqalishiga guvoh boʻlmoqdamiz.

Zamonaviy jamiyatda texnologiyalar rivoji nafaqat ishlab chiqarish texnologiyalari, uy-roʻzgʻor buyumlari, tovarlar va axborotlar tarqalishiga, shuningdek, madamiy mahsulotlar isteʼmoliga ham ulkan taʼsir koʻrsatmoqda. Chunonchi ijtimoiy tarmoqlar orqali virtual muloqotlar, har xil elektron oʻyinlar va ommaviy madamiyatning boshqa standartlashgan, mazmunan sayoz, baʼzan odamlarni chalgʻituvchi, maʼnaviyatga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi mahsulotlar yaratilib, insonlar tomomidan isteʼmol qilinmoqda.

Omma uchun yaratilgan mazmunan sayoz mahsulotlarni keng isteʼmol qilish odamlarning turmushga munosabatiga taʼsir qilib, qadriyatlar tizimini zaiflashtirmoqda, uning ongi va psixologiyasini oʻzgartirmoqda. Hayotga yengil-yelpi, baʼzan masʼuliyatsiz munosabat shakllanmoqda [3]. Yoshlar orasida “yashab qol”, “ertani oʻylama, hayot bir marta beriladi” kabi qarashlar tarqalmoqda. Yuksak narxlarini koʻzlab hayotiy reja tuzishga, oʻz ustida ishiashga, kelajagiga nisbatan masʼuliyatli boʻlishga loqaydlik, hozirgi shiddatli zamon taqozo etadigan, moda ketidan quvish, brend mahsulotlarini xarid qilishda boshqalardan ortda qolib ketmaslikka urinish maʼnaviy ehtiyojlarning bir qismini deformatsiyaga uchratmoqda. Sogʻlom va nosogʻlom ehtiyojlar oʻrtasidagi chegara yuvilib ketayotir. Afsuski, isteʼmoldagi birxillik milliy madaniyatlarning bir-birini oʻzaro boyitishi, rivojlanishiga nisbatan koʻproq gʻarb ommaviy madaniyati andozalariga moslashtirmoqda, rivojlanayotgan xalqlar madaniyatlarining gʻarb madaniyatiga qisman assimiliyatsiyalashuvi, milliy xususiyatlarining qashshoqlashuvi asosida kechmoqda.

Insonning har qanday ehtiyojlarining qondirilishi va yuksalishi jamiyatdagi ijobiy oʻzgarishlar bilan hamohang tarzda davom etadi. Lekin texnologiyalar rivojlanishi insoniyat taqdiri uchun koʻplab xavotirli holatlarni ham yuzaga keltirmoqda, texnokratik qarashlar ustunlik qilishiga, insoniy munosabatlar tanazzulga uchrashiga, begonalashish kuchayib, axloqiy meʼyorlar darz ketishiga olib kelmoqda.

Texnokratik qarashlar ustunlik qilib, anʻanaviy qadriyatlar – oilaviy qadriyatlar, qarindoshiik, doʻstlik, oʻrtoqlik, aksariyat axloqiy, estetik qadriyatlar inkor qilingan joyda oila va nikoh instituti yemirilmoqda.

Internet. Yuqoridagi bandlarda IT-sohasi haqida fikr bildirdik, uning insonlarga ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qildik. Zamonaviy texnologiyalarni internetsiz tasavvur etish mumkin emas. Jamiyatning har bir sohasiga internet kirib borgan: ta'lim tizimi, iqtisodiyot, siyosiy faoliyat, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va hokazo.

Fikrimizcha, internet tizimi jamiyat ma'naviy hayotiga keng ko'lamda ijobiy (odamlar dunyo go'zalligidan bahra olishi (virtual sayohatlar), kino yoki shoular tomosha qilishi, musiqalar tinglashi, muzeylardagi eksponatlarni, san'at asarlarini baholashi, dunyoning istalgan kutubxonasidagi kitoblaridan, arxiv hujjatlaridan foydalanishi, ta'lim olish, masofadan o'qish, turli konferensiyalarda qatnashish, yig'ilishlar o'tkazish, fikrlar va g'oyalar bilan o'rtoqlashish imkoniyatlarning vujudga kelishi) ta'sir o'tkazadi. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar orqali siz o'z yaqinlaringiz bilan suhbatlashish, ovozli xabar yoki rasm, video xabar orqali bir-biringizdan hol-ahvol so'rab turish (virtual aloqa orqali oradagi masofa "minimum darajada qisqaradi"), o'zingizga hamsuhbat, maslakdosh topishingiz, bo'sh vaqtlaringizda turli xil elektron o'yinlar bilan mashg'ul bo'lish imkoniyatingiz bor. Insoniyatni qiziqtirgan har qanday axborotlarni: iqtisodiy, siyosiy, harbiy, madaniy-ma'naviy mazmundagi ma'lumotlarni topish, undan foydalanish tezlashdi va osonlashdi. Yer yuzidagi barcha hukumat, jamoat va nodavlat tashkilotlarning faoliyati internet bilan bog'landi. Qisqacha aytganda, internet – XXI asr odamlari uchun madaniy mahsulotlar yaratuvchi va ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi asosiy vositasiga aylandi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshi chegaralanmagan iste'molchilar ulardan turli maqsadlarda foydalanmoqdalar. Turli-tuman xorijiy saytlar buzg'unchilik, terrorchilik, behayolik, ekstremizm, fundamentalizm kabi yot g'oyalarni yoyishga xizmat qilmoqda. Bularga e'tiborsiz munosabatda bo'lish mumkin emas. Bugungi kun olimlarini o'ylantirayotgan dolzarb muammolaridan biri bu zamonaviy tor tushuniladigan gedonizmdir. Aslida antik falsafada gedonizm hayotdan zavq-shavq olish g'oyasini olg'a suruvchi ta'limotdir. Insonning yashashdan maqsadi zavq-shavq, huzur-hulovat qilish orqali baxtli bo'lishdir degan gumanistik g'oyani ifodalaydi. Ammo iste'molchilik keng tarqalgan postmodern jamiyatda bu tushuncha deformatsiya bo'lmoqda. Endi gedonizm tarallabedodlarcha yashash, yoshiik zavqini surib, mehnatsiz hayot kechirishni (rohatlanish, ayshi-ishratdan iborat, degan o'ta bachkana g'oya) targ'ib qiluvchi qarashga aylanmoqda. Unda, asosan, insonning mayl va ehtiyojlari jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga qarama-qarshi qo'yiladi, insonning erkinligini cheklovchi va uning o'ziga xos xususiyatlarini namoyish etishga to'sqinlik qiluvchi har qanday shart va me'yorlarni inkor qiladi. Bu esa ehtiyojlar rivojlanishi uchun o'ta xavfli g'oyadir. Har qanday narsada, voqea, jarayonda me'yor buzilsa, teskari oqibatlariga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda zamonaviy sivilizatsiya, u tug'dirgan ommaviy madaniyatdan voz kechish imkonsiz. Lekin ularning insonga salbiy ta'sirini minimallashtirishga erishish lozim. Buning uchun esa ta'lim-tarbiya, birinchi galda ma'naviy tarbiya mazmunini, usul va vositalarini zamon talablarini hisobga olib takomillashtirish zarur. Shuningdek, insonlarning ma'naviy duryoqarashini va mafkuraviy immunitetini shakllantirish; oilalarda, mahallalarda, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish; ma'naviy ehtiyojlar yuksalishiga xizmat qiluvchi professional darajada tayyorlangan asarlar, filmlar, ko'rsatuvlar, suratlar yaratish uchun davlat so'z va ijod erkinligini, intellektual mulk himoyasini yanada ko'proq qo'llab-quvvatlashi, qonunchilik bazasini mustahkamlashi hamda ijtimoiy va moddiy-iqtisodiy shart-sharoit yaratish; mazmunan sayoz, g'oyaviy jihatdan shubhali, hatto zararli, siyosiy va diniy ekstremizmni, axloqiy buzuvchilikni, zo'ravonlik va fahshni targ'ib etuvchi, inson ma'naviyatini zararlovchi materiallar tarqatganlarga nisbatan huquqiy

mexanizmni takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qozoqboy Yo‘ldosh. Postmodernizm: mohiyat, ildizlar va belgilar. Jahon adabiyoti jurnali. №10/221, 2015 yil, oktyabr. 108-119 b.
2. Erkayev A. Tafakkur erkinligi. T.: 2021, 179-b.
3. Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. 1-kitob. “Ma’naviyat”, 2018 y., - 480 b.
4. Rudolf Pannwitz. Die Krisis Der Europaeischen Kultur (Germ. Edit.). Publ: Wentworth Press, 2018 y., - 276 p.
5. Дженкс Ч. Язык архитектуры постмодернизма. Перевод с английского А. В. Рябушина, М.В. Уваровой. Под редакцией А.В. Рябушина, В.Л. Хайта. – Москва: Стройиздат, 1985. - 136 с.
6. Тойнби Арнольд Джозеф. Постижение истории. – Москва: Директ-Медиа, 2007. – 1876 с.

UZA | O‘zbekiston
Milliy axborot
agentligi



Falsafa

| | |
|---|-----|
| G.NOSIRXODJAEVA. Abu Rayhon Beruniy ijodida fan tarixini tadqiq etishning uslubiy muammolari | 213 |
| J.A.JABBOROV. Zamonaviy jamiyat tendensiyalarining manaviy ehtiyojlar rivojlanishiga tasiri..... | 219 |
| F.Sh.ABDULLAEVA. Nasiriddin Tusiyning ilmiy merosida adolat mezomi | 225 |
| J.EGAMBERDIYEV. Milliy mustaqillikni asrash g'oyalarining ijtimoiy-tarixiy genezisi | 230 |
| I.ORZIEV. Globallashuv sharoitida desekulyarizatsiya va resekulyarizatsiya tendensiyalarining rivojlanishi | 237 |

Texnika

| | |
|--|-----|
| M.X.XUDAYBERDIEV, I.V.XAN, B.S.AChILOV. Цифровое фрактальное моделирование геометрических объектов сложной конфигурации..... | 243 |
| Q.R.ZOHIROV, Q.G.MADATOV, J.I.KOZIMOV. Insonning kinematik va dinamik harakatini reabillatsiya qilish | 249 |
| Sh.S.TO'XTAEV, X.N.ShARIPOV, Y.Q.MAXMUDOVA. Paxta g'aramini mexanik buzish mashinasining takomillashgan g'arambuzgich chambaragi..... | 256 |